



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARI MUQADDIMASI TAHLILI

Malohat Po'latova

PhD,

A. Mahmudov

Magistr

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: Navoiy, arba'in, asar, Payg'ambar, muqaddima, sharh, ma'no, misra, bayt, ummat, Haq ta'olo, hadis, lug'at, sahih, ilm, jaholat.

Annotatsiya: Alisher Navoiyning "Arba'in" asari o'rta asrlar sharq mumtoz adabiyotida hadislarning she'riy talqini sifatida o'ziga xos o'rinni egallagan. Navoiy "Arba'in" asari muqaddimasi 46 misradan iborat bo'lib, u "odobi tasnif" va "sababi ta'lifi manzuma" qismlariga ajratilgan. "Odobi tasnif" qismi xudoga, payg'ambarga, Jomiya va Husayn Boyqaroga bag'ishlanadi. "Sababai ta'lifi manzuma" qismida "Arba'in"ni yozishdan maqsadi va bu asardan umidi, uning foydasi kabi masalalar yoritilgan.

Alisher Navoiyning "Arba'in" asariga yozgan muqaddimasidagi arabiy so'zlarning kelib chiqishi, ularning ma'nolari hamda semantik tahliliga bag'ishlanlan tadqiqotni yoritishni maqsad qildik. Bunda biz uchun qadimiy so'z bo'lishga ulgurgan ayrim turkiy so'zlarning ma'no-mazmunini ochib berish orqali anglashilayotgan so'zning negizi qaysi tildan kelib chiqqanligi bayon etildi. Va muqaddimadagi arabiy so'zlarning ma'no-semantikasi har bir bayt so'ngida sharhlab berildi.

ANALYSIS OF THE PREFACE TO THE WORK "ARBA'IN" BY ALISHER NAVAI

Malohat Polatova

PhD,

A. Mahmudov

Master's degree

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Nawai, Arba'in, Asar, Prophet, Introduction, Commentary, Meaning, Misra, Bayt, Ummat, Haq Ta'ala, Hadith, Dictionary, Sahih, Knowledge, Ignorance.

Abstract: The work of Alisher Navoi "Arba'in" occupies a special place in medieval Eastern classical literature as the poetic interpretation of the Hadiths. The preface to the work of Navoi "Arba'in" consists of 46 poems that are divided into part of the "ethical classification" and "Sabhaba Talifa Manzum". The section "Odobi tasnif" is dedicated to God, Prophet, Jami and Hussein Baikaro. In the section "Sababai Talifa Manzuma" covered the goal of writing "Arba'in", as well as hope for this work and its benefits. In the preface to the work of Alisher Navoi "Arba'in" we sought to highlight studies on the origin of Arab words, their values and semantic analysis. By disclosing the value of some Turkic words that have become ancient for us, it was found out of which language this or that word happened. And the meaning of the semantics of Arab words in the introduction was due at the end of each verse.

АНАЛИЗ ПРЕДИСЛОВИЯ К ПРОИЗВЕДЕНИЮ АЛИШЕРА НАВАИ "АРБАИН"

Малохат Полатова

PhD,

А.Махмудов

Магистр

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Наваи, Арбаин, Асар, Пророк, Введение, Комментарий, Значение, Мисра, Байт, Уммат, Хак Таала, Хадис, Словарь, Сахих, Знание, Незнание.

Аннотация: Произведение Алишера Навои «Арбаин» занимает особое место в средневековой восточной классической литературе как поэтическая интерпретация хадисов. Предисловие к произведению Навои «Арбаин» состоит из 46 стихов, которые разделены на части «Этическая классификация» и «Сабаби таалифи манзуна». Раздел «Классификация нравов» посвящен Богу, Пророку, Джами и Хусейну Байкару. В разделе «Сабабай Таалифи Манзуна» освещена цель написания «Арбаина», а также надежда на эту работу и ее польза.

В предисловии к произведению Алишера Навои «Арбаин» мы стремились осветить исследования, посвященные происхождению арабских слов, их значениям и семантическому анализу. Путем раскрытия значения некоторых тюркских слов, ставших для нас древними, было выяснено, из какого языка произошло это то или иное слово. А смысл-семантика арабских слов во введении объяснялась в конце каждого стиха.

KIRISH

Sharq mumtoz adabiyotida har bir asar avvalida Alloh taologa hamd va Uning rasuliga salovat aytish bilan boshlash an'anaga aylangan tasnif yaratishning odobi bo'lib, , bu an'anaga xususan diniy adabiyotlarda katta ahamiyat qaratilgan. Albatta ular bunda Payg'ambar alayhissalomning so'zlarini asos qiladilar. Bunda Alisher Navoiyning buyuk shoirligidan tashqari uning diniy olimligini Navoiyning o'zidan oldingi olimlarga qolaversa Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi va sallam aytgan: “**Har bir gap yoki ahamiyatlari ishki bismillah va Allohnini eslash bilan boshlanmas ekan uning orqasi kesik (davom etmaydi, barakasi yuq)**”¹ degan hadisga amal qilganidan bilamiz.

Navoiy “Arba'in” – “Qirq hadis” asarini ham an'anaga binoan odob tasnif bilan boshlaydi. Navoiy “Arba'in”ga o'zgacha bir ruhiyat va samimiyat bilan yondashadi va muqaddimani 46 misrada yaratadi.

Hamd angakim, kalomi xayrmaol

Qildi elga rasulidin irsol.

Ul rasulki, ham *kalomi fasih*,
Elga tegurdi, ham *hadisi sahib*,
To ulus jahldin xalos bo'lub,
Ilm hilvatiga xos bo'lub,
Chun *tamuqdin najot topqaylar*,
Uchmak ichra hayot topqaylar.
Jalla zikruh zehi ilohi rofi',
'azza qadruh zehi rasuli shafi'.

Lug'at

“Xayrmaol”-oqibati yaxshi, (Kalomi xayrmaol)dan murod Qur'ondir; “irsol”-yubormoq; “fasih”-chiroyli, ma'nosи ravshan so'z; “tegurmak”-etkazmoq, “to”-uchun (qandaydir maqsad uchun); “ulus”- xalq; “jahl”-jaholat, (islomdan oldingi davr); “chun”-gach, “tamuq” yoki tamug‘- do'zax; “uchmak”-jannat; “zihe”-qanday ajoyib, “rafi”"-oliy².

Hamd angakim, kalomi xayrmaol

Qildi elga rasulidin irsol.

Hamd -Hamdun, حَمْدٌ - حَمْدٌ hamida yahmadu fe'lining masdari bo'lib, chiroyli go'zal maqtovlarini aytishdir. Fotiha surasining birinchi oyatida: “الحمد لله رب العالمين” “**Hamd olamlarning Robbi – Allohgakim**”³. Xudo sha'niga aytildigan maqtov, madh, sano. Hamdu sano aytmoq (o'qimoq). Menga omad bergen senga hamdlar bo'lsin⁴.

Kalom – كلام – *kalomun*, so'z nutq, gap-so'z, so'zlashish, gapishtish

“.....Toki u Allohnning *kalomini eshitsin.....*”⁵. Avval salom ba'daz kalom. Matal. So'zni Muqimiy kerak etmak tamom. Mazasi qolmas uzun o'lsa kalom. Muqimiy. Menga boqib, salom etib, har biri bir kalom etib, so'zjadi ehtirom etib, topdi bahona

¹ Ibn Habbonning as-Sahih kitobide keltirilgan va bu hadisni Imom Navaviy hasan hadis degan. islamweb/

² Alisher Navoiy, Arba'in, muallif Alibek Rustam, “Meros” nashriyoti-Toshkent -1991.

³ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti, Toshkent 2021. Fotiha surasi 1-oyat.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma'rufov. Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981. Ikkinchisi tom 682-bet.

⁵ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti, Toshkent 2021. Tavba surasi 6-oyat.

qizlarim. Muqimiy. Kalomulloh (din) Qur'on. Majdiddin. Agar hiyla qilsam Kalomulloh ursin. Uyg'un, I. Sulton, Navoiy⁶.

Xayrmaol – خیر مآل – xoyru maol. Bu so'z ikkita so'zning birikmasi bo'lib oqibati yaxshi⁷ degan ma'noni ifodalaydi.

"فمن يعمل مثقال ذرة خيراً يره" "Bas, kimki (Dunyoda) zarra miqdorda yaxshilik qilgan bo'lsa, (qiyomat kuni) uni ko'rар" ⁸ maol, آل-يۇول مآل maol, ala-yaulu fe'lidan olingen va o'rin paytni ifodalagan ism bo'lib, unga qaytadigan, murojat qiladigan narsalarning eng yaxshisi demakdir.

Rasul – رسول – rasulun, elchi, vakil, topshiriq bilan boshqa mamlakatga yuborilgan shaxs, oldindan xabar beruvchi, رسول الله Rasulullah Allohnning elchisi⁹.

Irsol – ارسال – irlsolun, bu – ارسال-يىرسل – arsala-yursilu fe'lining masdari bo'lib yubormoq irsol qilmoq ma'nosini anglatadi¹⁰.

Qurhoni Karimda ham shunday marhamat qilinadi:

"هُوَ الَّذِي أَرْسَلَ رَسُولَهُ بِالْهُدَىٰ وَبِنِ الْحَقِّ لِيُظَهِّرَ عَلَى الْأَنْبَيْتِ كُلَّهُمْ وَلَوْ كَرِهُ الْمُشْرِكُونَ"

"U Rasulini hidoyat va haq din bilan – garchi mushriklar yoqtirmasalarda – barcha dinlar uzra g'olib qilish uchun yuborgan zotdir"¹¹.

"Kalomu Xayramol" dan maqsad Qur'oni Karimdir. "Rasuldin Irsol" dan maqsad Payg'ambar yubormoq. Demak Navoiy "Arba'in" asarini Muqaddimasini ummatga Quro'nni tushirgan va Payg'ambar yuborgan Haq ta'ologa hamd aytish bilan boshlagan.

Alisher Navoiy muqaddimaning avvalida o'z elchisi orqali uning oqibatining xayrli bo'lishini ta'minlaydigan kalomini yuborgan Haq Taologa hamd aytish bilan boshlaydi. Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi va sallamning so'zları fasohatli ekanligini, halqaga sahib hadislaridan dinni bayon qilganligini, shunda inson jaholat qorong'uligidan chiqib, ilm egasi, ya'ni musulmonlar ilmgaga xos bo'lganiga ishora qiladi. Shu bilan insonlar do'zaxdan najot topib jannatda barhayot bo'lishini qasd qiladi, oxirgi misrada ham Allohga yana bir zikr qilib shafoatchi Rasulni nomi aziz bo'lishini va Rasulning shafoatidan umid qilishiga ishora qiladi.

Ul rasulki, ham kalomi fasih,

Elga tegurdi, ham hadisi sahīh,

Fasih فصیح – fasihun, fasohatli gap. Chiroyli va yoqimli so'zlashish qobiliyati, fasohat bilan so'zlamoq.

"Uning (Zokirjonning) nozik harakatlari, shoirona muomalalari, zakovati, malohati, jozibali fasohati meni o'ziga maftun qildi, dedi Muqimiy¹²". Gap fasohatli bo'lishi uchun uning oltita nuqsondan salomat bo'lishi shart qilinadi, ular mutanofir so'zlarning jamlanishi, gapning zaif tashkil topishi, undagi so'zlarning noaniqligi, ma'nosini noaniqligi bir so'zni ko'p takrolanishi va izofalarни ketma-ketligidir¹³.

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma'rufov. Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981. Birinchi tom 361-bet.

⁷ An-Na'im, arabcha o'zbekcha lug'at. Abdulla Qodiriy nomimdagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003.38 -bet.

⁸ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti, Toshkent 2021. Zalzala surasi 7-oyat.

⁹ An-Na'im, arabcha o'zbekcha lug'at. Abdulla Qodiriy nomimdagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003. 306 -bet.

¹⁰ An-Na'im, arabcha o'zbekcha lug'at. Abdulla Qodiriy nomimdagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003. 306 -bet.

¹¹ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti, Toshkent 2021. Tavba surasi 33-oyat.

¹² O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma'rufov. Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981. Ikkinci tom 297-bet.

¹³ Javohirul balog'a. Ahmad Hoshimiyy. Al-maktabatul Asriyya nashri. Bayrut. 19-bet.

Hadis – **hadisun**. Gap, so‘z, Muhammad Payg‘ambarning gap-so‘z va axloqlari hamda payg‘ambar haqidagi rivoyatlar, Bir qancha mu’tabar kitob, oyat va hadislarni qarab chiqdim. G‘ayratiy¹⁴.

Sahih – **sahihun**. Sahih so‘zining lug‘aviy ma’nosi tuzuk, sog‘lom durustdir **صَحَّة** sihat, salomatlik. **صَحِيقُ الْجَسْم** sog‘lom, tandurustda bo‘lgan kishi¹⁵.

“Ul Rasuliki” dan murod Muhammad payg‘ambar, “kalomi fasih”dan murod Mazmunli, guzal, chiroyli, tushunarli, keng ma’noli, “elga tegurdij” dan maqsad xalqqa yetkazardi. Bu misraning mazmuni, Muhammad Payg‘ambar Haq ta’oloning shari’atini ummatga mazmunli sahih hadislar orqali yetkazgan. Bu baytda Navoiy hadis ilmida hadisi sharifni sahih va nosahiha qismlanishini bilgанилиги va Muhammad payg‘ambarni o‘qish yozishni bilmasada sermazmun, chiroyli iboralar keltirishga qodirligiga ishora qilib o‘tmoxda. Shuni aytib o‘tish kerakki, sahih so‘zining lug‘atda to‘g‘ri durust ma’nolari bo‘lib, hadis ilmida esa hadisnin sanadi va matnida ayb – nuqsonlar bo‘lmagan hadisga sahih hadis deb aytildi. Hadisning qalbaki emasligi aniq bo‘lsa unga sahih deyiladi. Hadisning sahihligini tasdiqlovchi dalillardan biri uning isnodining muttasilligi, ya’ni uzluksizligidir. Hadisning mana shu jihatni nazarda tutilganida uni “hadis muttasil” deydilar. Agar uning ziddi bo‘lsa, ya’ni hadisning isnodi muttasil bo‘lmasa, unga “Hadisi mursal” yoki “Hadisi munqati” ya’ni nosahih (za’if) deyiladi¹⁶. Lekin Navoiy bu erda sahih so‘zining lug‘aviy ma’nosini nazarda tutgan.

To ulus jahldin xalos bo‘lub,

Ilm hilvatiga xos bo‘lub,

Ulus – Xalq, xaloyiq. Navoiy ona vatanini, o‘z ulusi, o‘z tilini dildan sevar edi. A. Qayumov, she’riyat sulton¹⁷

Jahl – **jahlun**. Johil, nodon, mulohazasiz bo‘lmoq.

”قُلْ أَفَغَيْرُ اللَّهِ تَأْمُرُونِي أَعْبُدُ لَيْهَا الْجَاهِلُونَ“ “(Ey Muhammad! Mushriklarga) aiting: “Hali sizlar meni Allohdan o‘zgaga ibodat qilishga buyurayapsizmi, ey nodonlar!”¹⁸. Ilm-ma’rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat. Odamlarning miyasini o‘rgimchak to‘riday chulg‘ab, ko‘zlarini haqiqatni ko‘rishdan to‘sib kelgan jaholatni sindirib tashlaydigan bilim, kuch va g‘ayrat berdingiz. P. Tursun¹⁹.

Xalos – **xolasun**. Xalos bo‘lmoq, qutulmoq, ozod bo‘lmoq, darddan xalos bo‘lmoq. Sungi amrdan xalos bo‘libmiz-da! – kulib qo‘ydi buronbe. H. G‘ulom²⁰.

Ilm – **ilmun**. Bu علم – علم – alima-ya’lamu fe’lining masdari bo‘lib, bilmoq, ilmli bo‘lmoq ma’nolari mavjud. O‘zbek tilidagi olim so‘zi ham ushbu so‘zning biluvchi mazmunini ifodalaydigan so‘zdir.

¹⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma’rufov. Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981. Ikkinci tom 671-bet.

¹⁵ An-Na’im, arabcha o‘zbekcha lug‘at. Abdulla Qodiriy nomimdag‘i xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003. 448-bet.

¹⁶ Alisher Navoiy, Arba’yn, muallif Alibek Rustam, “Meros” nashriyoti-Toshkent-1991. 18-bet.

¹⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma’rufov. Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981. Ikkinci tom. 272-bet.

¹⁸ Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti Toshkent 2021. Zumarsurasi 64-oyat.

¹⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma’rufov. Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981. Birinchi tom 276-bet.

²⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma’rufov. Moskva “Rus tili” nashriyoti 1981. Ikkinci tom. 313-bet

" هو الله الذي لا إله إلا هو عالم الغيب والشهادة هو الرحمن الرحيم " U shunday Allohdirki, Undan o'zga iloh yo'qdir. (U) yashirin va oshkora narsalarni biluvchidir. U mehribon va rahmlidir"²¹.

Xos – خاص – xossun. Xos, maxsus, xossatan. “Ular Allohning ahli va xos bandalari....” hadis²².

“To” bu yerda maqsadni ifodalaydi, “ulus” xalq. Islom dini kelishidan oldingi davr johiliyat davri deb aytildi. Oldingi baylardan ma'lum bo'ladiki, Haq ta'olo Muhammad payg'ambarni insoniyatni jaholat botqog'idan ilm ma'rifat yuliga chiqargach ul ummatdan johillik nomi ketib, haqni tanigan ilm sohiblari degan nomga xos bo'ldilar.

Chun tamuqdin najot topqaylar,

Uchmak ichra hayot topqaylar.

Tamuq, (tamug') – Jahannam, do'zax²³.

Uchmak, (uchmox) – Jannah, umring yorug', vataning uchmox, Mendan so'ra, men yonib o'tdim. Mir-temir²⁴

Najot – najotun. Najot topmoq yordam, xalos bo'lish, qutulish, najot bermoq, najot topmoq. Yaratganning o'zi najot bersin Allohu akbar. N. Safarov. Sharq tongi. "وَنَجَنا بِرَحْمَتِكَ مِنْ "O'z rahmating bilan bizni kofirlar qavmidan xalos et!"²⁵.

Hayot – hayatun. Yashamoq, hayot bo'lmoq, umr guzaronlik qilmoq.

"قالَ فِيهَا تَحْيَوْنَ وَ فِيهَا تَمُوتُونَ وَ مِنْهَا تَخْرُجُونَ" (Yana) dedi: “Unda yashaysiz unda o'lursiz va unda (oxiratga) chiqarilursiz”²⁶.

“tamuqdin” dan murod, jahannam, do'zax. “uchmak” dan murod jannah. dir. 2-4 baytlarning natijasi shuki Muhammad payg'ambar kalomi fasih va hadisi sahif bilan isonlarni johiliyatdan chiqargach ular jannah azobidan xalos bo'lib, jannahda abadiy hayot bo'ladilar.

Jalla zikruh zehi ilohi rofi',

'azza qadruh zehi rasuli shafi'.

Jalla – جلّ – jalla. Bu o'tgan zamon fe'li bo'lib ulug' bo'ldi faloncha ulug' bo'ldi, ma'nosini ifodalaydi. Shu bilan birga u duo ma'nosida ham ko'p iste'mol qilinadi, Alloh azza va jalla Allohamma narsaga qodir va buyukdir²⁷. uning masdari جلال جلاله جلیل Jalol, jalola, jalildir²⁸.

"ويَقِنَّ وَجْهَ رَبِّ نُوَجَّالَ وَ الْإِكْرَامَ "Ulug'lik va ikrom sohibi bo'lmish Robbingizning "yuzi" boqiy qolur"²⁹.

Zikr – zikrun. Eslash, xotirlash, so'zlash, tilga olish, yod olish, zikr qilish. Nodirabegim nomi zikr qilinishi bilan muqimiyning yodiga kitob tushib ketdi, jim turib qoldi. S. Abdulla. Mavlono Muqimyi³⁰.

²¹ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti Toshkent 2021 Hashr surasi 22-oyat.

²² Sunanu ibn Moja 1,tom, 78, bet. 215, hadis.

²³ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki toqli, muharrir Z. M. Ma'rufov. Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981. Ikkinchi tom 115-bet.

²⁴ Oldingi manba, 286-bet.

²⁵ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti Toshkent 2021. Yunus surasi 86-oyat.

²⁶ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti al-A'rof surasi 25-oyat.

²⁷ An-Na'im, arabcha o'zbekcha lug'at. Abdulla Qodiriy nomimdag'i Xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003. 131-bet.

²⁸ Mu'jamul wasit. Arabcha lug'at, ash-Shuruqud davliyya nashri. To'rtinchи nashr 2008. 135-bet.

²⁹ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti Toshkent 2021. ar-Rohman surasi 27-oyat.

"فَكُرُونِي أَنْكِرْكُمْ" "Bas, meni yod etingiz, (men ham) sizlarni yod eturman"³¹.

Iloh – ilohun. Iloh ma'bud. Allohdan o'zga iloh yuq.

"الله لا إله إلا هو الحي القيوم" "Alloh – Undan o'zga iloh yo'qdir. (U) hamisha barhayot va abadiy Turuvchidir"³².

Rafi' – raf'i'un. Baland, yuqori, atoqli, nomdor dongdor. Qadri baland, mashhur. اسم "يرفع الله الذين آمنوا منكم و الذين أوتوا العلم" harakati ko'tarilgan bosh kelishikda kelgan ism. مرفوع درجات "Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur"³³.

Azza – azza. Kuchli qudratli , shavkatli bo'lmoq, qudratli va ulug' Alloh. من عز و جل الله عز و جل kuchli kishi yengadi³⁴. "و هو العزيز الحكيم" "U qudratli va hikmatli zotdir"³⁵.

Qadr – qodrun. Qadri qimmati sha'ni. Kishilar o'rtasida tutgan o'rinn, obro', e'tibor, hurmat, nufuz. O'z qadrini bilmagan birovning qadrini bilmaydi. Maqol. Kishining qadri amali va unvoni bilan emas, vataniga, halqiga qilgan hizmati bilan o'lchanadi. Shuhrat³⁶.

Shafi' – shafi'un. Homiy, tarafdar, oqlovchi, himoyachi, shafi', vositachi. Birovga yon bosuvchi, homiylik qiluvchi³⁷.

"ما لكم من دونه من ولی و لا شفیع" "Sizlar uchun Undan o'zga biror do'st va oqlovchi yo'qdir"³⁸.

"Jalla zikruh" dan murod, Uning (Alloh)ning nomi ulug' bo'lsin degan ma'no bo'lib, bu so'z, Alloh zikr qilinganda aytildigan duodir. "ilohi rofi'" dan murod, sha'ni baland Iloh (Alloh)dir. "Azza qadruh" dan murod, qadri aziz bo'lsin ma'noni anglatib, bu ma'noni Navoiy Muhammad payg'ambarning nomi zikr qilingani uchun Uning (Muhammad payg'ambar)ning nomi aziz bo'lishi uchun duo qilib o'tdilar. "Rasuli shafi'" dan murod, ummatiga mehribon shafoatchi Payg'ambardir.

XULOSA

Biz bu "arba'in" asarining muqaddimasidagi arabiyo so'zlarning semantik tahlinini yoritishni maqsad qildik va o'quvchiga oson bo'lsin uchun undagi ayrim turkiy so'zlarni izohlab o'tdik, muqaddimadagi arabiyo so'zlarni yoritishda arabcha o'zbekcha an-Na'im, o'zbek tilining izohli lug'ati va Shayx Abdulaziz Mansurning Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri kitoblardan foydalandik.

Muqaddimani Navoiy turkiy tilda yozgan bo'lsada mazkur beshta baytning o'zidayoq turkiy tilga kirib ulgurgan yigirma to'rtta arabiyo so'zlarni keltiradi. Holbuki bu so'zlarning ba'zilarining turkiy nomlari mavjud. Navoiy turkiy so'zlar badaliga arabiyo so'zlarni

³⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma'rufov. Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981. Birinchi tom. 305-bet.

³¹ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti.Toshkent 2021. Baqara surasi 152-oyat.

³² Oldingi manba.Oli-Imron surasi 2-oyat.

³³ Oldingi manba.Mujadila surasi 11-oyat.

³⁴ An-Na'im, arabcha o'zbekcha lug'at. Abdulla Qodiriy nomimdagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003.537-bet.

³⁵ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti.Toshkent 2021.Josiya surasi 37-oyat.

³⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomli, muharrir Z. M. Ma'rufov. Moskva "Rus tili" nashriyoti 1981. Ikkinchchi tom.534-bet.

³⁷ Oldingi manba.Ikkinchitom.402-bet.

³⁸ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti.Toshkent 2021.Sajda surasi 4-oyat.

keltirganining sababi o‘quvchining zehniga tez yetishi va ta’sirli bo‘lishini qasd qiladi. Mazkur baytlarni o‘qigan kishi Navoiyning misralarni qanchalar qofiya bilan keltirganini hamda ularning sodda iboralar va sermazmunligini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy, Arba’iyn, muallif Alibek Rustam, “Meros” nashriyoti, Toshkent. 1991.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomli, muharrir Z.M. Ma’rufov. Moskva “Rus tili” nashriyoti, 1981.
3. An-Na’im, arabcha o‘zbekcha lug‘at. Abdulla Qodiriy nomimdagি xalq merosi nashriyoti, Toshkent. 2003.
4. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri, Shayx Abdulaziz Mansur, Qayta ishlangan nashr, Sano standart nashriyoti, Toshkent. 2021.
5. Mu’jamul vasit. Arabcha lug‘at, ash-Shuruq� davliyya nashri, To‘rtinchi nashr. 2008.
6. Javohirul balog‘a. Ahmad Hoshimiyy. Al-maktabatul Asriyya nashri. Bayrut.